



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 264 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макрэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkijonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	



SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTARIDA XARAJATLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Raximova Maftuna Axmadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Email: maftunarahimova5886@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sog'liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlar samaradorligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Unda tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Sog'liqni saqlash tizimida xarajatlar tuzilmasi, ularning boshqaruv mexanizmlari hamda budjet mablag'lari va nodavlat manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlardan kelib chiqib, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Sog'liqni saqlash tizimi, xarajatlar samaradorligi, moliyaviy boshqaruv, resurslardan foydalanish, innovatsion yondashuvlar.

Abstract: This article examines the issues of ensuring cost-effectiveness in healthcare organizations. It analyzes the theoretical and practical aspects of rational resource utilization in the provision of medical services, improvement of financial management, and enhancement of economic efficiency. The study explores the structure of expenditures in the healthcare system, mechanisms of their management, and opportunities for increasing the efficiency of budgetary and non-budgetary funds utilization.

Key words: Healthcare system, cost-effectiveness, financial management, resource utilization, innovative approaches.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы обеспечения эффективности расходов в организациях здравоохранения. Анализируются теоретические и практические аспекты рационального использования ресурсов в процессе оказания медицинских услуг, совершенствование финансового управления и повышение экономической эффективности. Изучена структура расходов в системе здравоохранения, механизмы их управления, а также возможности повышения эффективности использования бюджетных средств и внебюджетных источников.

Ключевые слова: Система здравоохранения, эффективность расходов, финансовое управление, использование ресурсов, инновационные подходы.

KIRISH

Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimi har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, mehnat unumdorligini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishda ushbu sohaning o'ri beqiyosdir. Shu bois sog'liqni saqlash tashkilotlari faoliyatida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni samarali boshqarish hamda iqtisodiy natijadorlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan qator qaror va farmonlari bu borada tub islohotlar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim tibbiyot muassasalarida xarajatlar tuzilmasi va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mablag'lardan samarasiz foydalanish, resurslarning yetarli darajada hisobga olinmasligi va moliyaviy intizomning sustligi sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlashda xarajatlarni samarali boshqarishning muhim sharti bu – resurslarni oqilona taqsimlash, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish va moliyaviy boshqaruv tizimining shaffofligini ta'minlashdir. O'zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlarni milliy realliklarga moslashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xizmatlar sifatini yaxshilash sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sog'liqni saqlash sohasida xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat milliy, balki global miqyosda dolzarb hisoblanadi. Xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy jihatdan barqaror yuritish, resurslardan oqilona foydalanish va xarajatlarni optimallashtirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jumladan, S. Tomson, R. Osborn, R. Busse kabi olimlarning tadqiqotlarida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishda moliyaviy oqimlarni shaffof boshqarish, davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish masalalari alohida tahlil qilingan. Shuningdek, Y.A. Shumpeterning innovatsion yondashuv haqidagi nazariyalari sog'liqni saqlash sohasida investitsiyalarni samarali jalb qilishga oid konseptual asoslarni belgilab bergan. B.A. Lundvall esa sog'liqni saqlashni innovatsion tizim sifatida ko'rib, ilm-fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasini xarajatlarni kamaytirishning samarali yo'llaridan biri sifatida ta'kidlaydi. Ushbu ilmiy ishlarda sog'liqni saqlashda xarajatlarni yuzaga kelish omillari, ularni boshqarish sharoitlari hamda zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarni tatbiq etish bo'yicha nazariy va uslubiy jihatlar chuqur o'rganilgan.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va samarali resurs taqsimotini ta'minlash borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, S.S. G'ulomovning asarlarida sog'liqni saqlash tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali xarajatlarni kamaytirish masalalari yoritilgan. N.X. Jumayev tomonidan sog'liqni saqlashda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari tahlil etilgan bo'lsa, D.A. Raxmonov ilmiy ishlarida davlat budjeti va sug'urta tizimlari orqali sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganilgan. M.M. Tashxodjayev sog'liqni saqlash sohasida islohotlarni amalga oshirishda institutsional muammolar va ularni hal etish yo'llarini ko'rsatib bergan. B.K. G'oyibnazarov esa sog'liqni saqlash tizimida resurslarni strategik boshqarishning ilmiy asoslarini ishlab chiqqan.

Umuman olganda, xorijiy va milliy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash sohasida xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish ko'p omilli jarayon bo'lib, u moliyaviy, tashkiliy, institutsional va texnologik yondashuvlarni uyg'unlashtirishni talab etadi. Shu bois, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy asoslarni kengaytiradi, balki sog'liqni saqlash tizimini yanada samarali va barqaror rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sog'liqni saqlash sohasini xarajatlar samaradorligini boshqarish murakkab jarayon bo'lib, bu iqtisodiy salohiyatning barcha tarkibiy qismlarini, tashqi muhitini va ulardan foydalanish samaradorligini o'z ichiga oladi. Bunday boshqaruvni samarali amalga oshirish uchun induksiya va deduksiya usuliga asoslangan kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Bu yondashuv muammoni qamrab olish va yechim topishda tizimli yondashuv imkoniyatini yaratadi.

Ushbu jihatlarini hisobga olgan holda, tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda omilli tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi so'nggi yillarda sezilarli moliyaviy o'zgarishlarga guvoh bo'lmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil mamlakatning umumiy sog'liqni saqlash xarajatlari yalpi ichki mahsulot YalMning 7,7 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Markaziy Osiyo davlatlari orasida nisbatan yuqori bo'lsa-da, mablag'larning samarali taqsimlanishi va ularning maqsadli ishlatilishi masalalari hanuz dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sog'liqni saqlash xarajatlari 2023-yilda taxminan 157 AQSH dollarini tashkil etgan. Biroq xalqaro xarid qobiliyati pariteti bo'yicha ushbu ko'rsatkich 673 AQSH dollarini tashkil etgani sog'liqni saqlash xarajatlarning real iqtisodiy qiymati yuqoriroq ekanligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, mamlakatda sog'liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ortib borayotganini anglatadi.

Biroq tizimdagi muammoli jihatlardan biri — mablag'larning katta qismi xususiy manbalardan, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri aholining cho'ntagidan qoplanayotganidir. Jahon banki hisobotiga ko'ra, 2023-yilda xususiy xarajatlar sog'liqni saqlash xarajatlarning 58 foizidan ortig'ini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich yuqori bo'lgani sababli aholining past daromadli qatlamlari sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishda moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Sog'liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlar samaradorligini ta'minlash nazariy jihatdan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish va xizmatlar sifatini oshirish tamoyillariga asoslanadi. Mazkur jarayonning mohiyati shundaki, sog'liqni saqlash tizimida mavjud moliyaviy, moddiy va



inson resurslari cheklangan sharoitda eng yuqori natijaga erishish uchun maqsadli taqsimlanishi va samarali boshqarilishi lozim (1-jadval).

Nazariy yondashuvlarning birinchi yo'nalishi - bu resurslardan oqilona foydalanish konsepsiyasidir. Unga ko'ra, tibbiyot muassasalari o'z faoliyatida mavjud mablag'larni sarflashda samaradorlik mezonlariga tayanishi, ya'ni kamroq xarajat evaziga ko'proq ijtimoiy natija olishga intilishi zarur. Bu yondashuv xizmatlar hajmi va sifati o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish - moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish nazariyasi. Bu nazariy asosda sog'liqni saqlash muassasalarida budjetlashtirish tizimini rivojlantirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish, ichki va tashqi audit mexanizmlarini joriy etish orqali mablag'larning shaffofligini ta'minlash muhim o'rin tutadi. Natijada moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishi va hisobdorlikning oshishi ta'minlanadi.

1-jadval. Sog'liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlarning samaradorligini ta'minlashning nazariy yondashuvlari¹

№	Yo'nalish	Nazariy mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Resurslardan oqilona foydalanish	Moliyaviy, moddiy va inson resurslaridan samarali foydalanish nazariyasi asosida xarajatlarni minimallashtirish	Xarajatlarni qisqartirish va xizmatlar hajmini oshirish
2	Moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish	Budjetlashtirish, nazorat va audit tizimini rivojlantirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash	Shaffoflik va hisobdorlikning kuchayishi
3	Xarajatlarni optimallashtirish	Operatsion faoliyat xarajatlarni kamaytirish, dori-darmon va jihozlar xaridida samaradorlikni oshirish	Mablag'larni tejaliishi va resurslarning maqsadli ishlatilishi
4	Innovatsion yondashuvlar	Raqamli texnologiyalar, elektron sog'liqni saqlash tizimlari va telemeditsina joriy etish	Xizmatlar sifatining oshishi va samaradorlikning kuchayishi
5	Xalqaro tajribani moslashtirish	Chet el amaliyotidan olingan ilg'or tajribalarni milliy sharoitga tatbiq etish	Moliyaviy barqarorlik va sog'liqni saqlash tizimi rivoji
6	Profilaktika va birlamchi xizmatlarga e'tibor	Kasalliklarning oldini olish nazariyasiga tayanib xarajatlarni qayta taqsimlash	Uzoq muddatda tibbiy xizmat xarajatlarning kamayishi

Uchinchi yo'nalish sifatida xarajatlarni optimallashtirish nazariyasini keltirish mumkin. U sog'liqni saqlash tizimidagi operatsion xarajatlarni kamaytirish, dori-darmon va tibbiy jihozlarni xarid qilish jarayonida samaradorlikka erishish, ortiqcha xarajatlarni qisqartirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashni nazarda tutadi.

To'rtinchi muhim yo'nalish - innovatsion yondashuvlar nazariyasi. Bu yondashuv sog'liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron tibbiy xizmatlar, telemeditsina va onlayn konsultatsiyalarni rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsion yondashuvlar xarajatlarni kamaytirish bilan birga xizmatlar sifatini ham yaxshilash imkonini beradi.

Bundan tashqari, xalqaro tajribani moslashtirish nazariyasi ham alohida ahamiyatga ega. Jahonning rivojlangan davlatlarida sinovdan o'tgan moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini o'zlashtirish va ularni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali sog'liqni saqlash tizimida samaradorlikni oshirish mumkin.

Shuningdek, nazariy yondashuvlarning muhim jihatlaridan biri - profilaktika va birlamchi tibbiy xizmatlarga ustuvorlik berishdir. Bu tamoyil kasalliklarning oldini olish orqali kelajakdagi davolash xarajatlarni kamaytirish va sog'liqni saqlash tizimida uzoq muddatli samaradorlikka erishishni ko'zda tutadi.

Xarajatlarning tarkibida dori vositalari alohida o'rin tutadi. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, umumiy sog'liqni saqlash xarajatlarning qariyb 36 foizi dorilar va tibbiy buyumlar sotib olishga yo'naltirilgan. Bu esa resurslarning katta qismi dori vositalariga sarflanayotganini ko'rsatadi va dori narxlarini tartibga solish, ularni subsidiya qilish yoki davlat xaridlarini samarali tashkil etish zarurligini anglatadi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, samarali sog'liqni saqlash tizimiga ega davlatlarda mablag'larning katta qismi profilaktika, birlamchi tibbiy xizmatlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yo'naltiriladi. O'zbekistonda ham oxirgi yillarda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, elektron tibbiy xizmatlarni keng joriy etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu jihatdan, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida xarajatlarning samaradorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lib qolmoqda: mablag'lardan shaffof foydalanish, resurslarni oqilona taqsimlash, xususiy xarajatlarning ulushini kamaytirish, dorilar bozorini tartibga solish hamda innovatsion moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini keng qo'llash zarur hisoblanadi.

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlar samaradorligini ta'minlash nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki xizmatlar sifati va aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mablag'lardan oqilona foydalanish, ularni manzilli va shaffof taqsimlash, resurslarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish sog'liqni saqlash tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Shuningdek, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirish orqali tibbiyot muassasalarida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda moliyaviy boshqaruvning zamonaviy usullarini keng tatbiq etish zarur. Bu esa xarajatlarni optimallashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, sog'liqni saqlash tashkilotlarida xarajatlar samaradorligini ta'minlash bo'yicha kompleks yondashuvni qo'llash mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, aholining tibbiy xizmatlardan qoniqish darajasini oshirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Busse, R., & Riesberg, A. (2004). Health care systems in transition: Germany. WHO Regional Office for Europe on behalf of the European Observatory on Health Systems and Policies.
2. Osborn, R., Squires, D., Doty, M. M., et al. (2014). International survey of older adults finds shortcomings in access, coordination, and patient-centered care. *Health Affairs*, 33(12), 2247–2255. doi:10.1377/hlthaff.2014.0947.
3. Шумпетер Й.А. История экономического анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с англ. под ред. В.С.Автономова. СПб.: Экон. шк.: С.-Петерб. гос. ун-т экономики и финансов; М.: Высш. шк. экономики, 2001. - 1664 с.;
4. Lundvall, B.A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.A. Lundvall. London: Pinter Publishers, 2002;
5. Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019. – 216-217 б.
6. Коломин Е.В. Историческая миссия страхования.//Финансы. –М.: 2013. -№12. –С. 28-31.
7. Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019. – 229 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>